

**ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARNI
UMUMTA'LIM JARAYONIGA JALB QILISHNING MUHIM JIHATLARI**

Nazarova Dildora Asatovna

*Oriental universiteti Pedagogika
va psixologiya kafedrası professori,
pedagogika fanlari nomzodi
e-mail:nazarova@gmail.com*

Xakimxo'jaeva Feruza Rixsivoy qizi

*Oriental universiteti, Psixologiya yo'nalishi
301-guruh, 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning falsafiy asoslari va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'limga jalb qilishdagi psixologik jihatlar atroflicha tahlil qilingan. Maqolada gumanizm, aksiologiya, ijtimoiy adolat, pedagogik antropologiya kabi falsafiy yo'nalishlar inklyuziv ta'limda qanday namoyon bo'lishi ko'rsatilgan. Shuningdek, «group-inclusion» usuli, o'qituvchilar tayyorgarligi, sinf muhitidagi qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy qabul kabi psixologik intervensiyalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, falsafiy asoslar, psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolat, group-inclusion, alohida ehtiyoj

Аннотация. В статье подробно проанализированы философские основы инклюзивного образования и психологические аспекты включения детей с особыми образовательными потребностями в общеобразовательные учреждения. Рассматриваются философские направления, такие как гуманизм, аксиология, социальная справедливость и педагогическая антропология. Также проведён анализ психологических интервенций: метод «групповой инклюзии», готовность учителей, поддержка в классе и социальное принятие.

Ключевые слова: инклюзивное образование, философские основы, психологическая поддержка, социальная справедливость, групповая инклюзия, особые потребности.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the philosophical foundations of inclusive education and the psychological aspects of integrating children with special educational needs into mainstream schooling. It discusses philosophical perspectives such as humanism, axiology, social justice, and pedagogical anthropology. Psychological interventions such as group-inclusion methods, teacher preparedness, classroom support, and social acceptance are also examined.

Keywords: inclusive education, philosophical foundations, psychological support, social justice, group inclusion, special needs.

Kirish

Jahon hamjamiyatida ta'lim sohasida inson huquqlariga asoslangan yondashuvlarni joriy etish birinchi darajali vazifaga aylangan. Bu jarayonda barcha bolalar uchun sifatli va teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan inklyuziv ta'lim tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'limda alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarni umumta'lim muhitiga samarali jalb etish orqali jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglik va bag'rikenglik tamoyillari mustahkamlanadi.

Shu bois hozirgi kunda inklyuziv ta'lim jahon ta'lim siyosati va amaliyotida eng dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Uning asosiy maqsadi – har bir bolaga, u qay darajada aqliy, jismoniy yoki hissiy cheklavlarga ega bo'lishidan qat'i nazar, bir xil ta'lim imkoniyatlari va teng huquqlar yaratishdan iborat. Inklyuziv ta'lim inson huquqlari, ijtimoiy tenglik, qadr-qimmat, bag'rikenglik va turfa xillikka hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi.

Dunyo mamlakatlarida, jumladan, Finlyandiya, Italiya, Norvegiya, Kanada va boshqa rivojlangan davlatlarda inklyuziv ta'lim davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu davlatlarda ta'limda alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarni umumta'lim muassasalarida qo'llab-quvvatlash uchun infratuzilma, maxsus pedagoglar, ijtimoiy-psixologik xizmatlar va ota-onalar bilan tizimli hamkorlik mavjud.

O'zbekistonda ham bu yo'nalish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, so'nggi yillarda normativ-huquqiy bazani shakllantirish, infratuzilmani yaxshilash, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va maxsus resurs markazlarini tashkil etish borasida aniq qadamlar qo'yilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan «inson qadri uchun» tamoyili ta'lim tizimida insonparvar, individual va adolatli yondashuvni ta'minlashga yo'naltirilgan. 2020-yilda qabul qilingan PQ-4860-sonli qaror, so'nggi yillardagi inson qadri uchun «Inklyuziv ta'limni joriy etish chora-tadbirlari» bo'yicha qarorlar va islohotlar alohida ehtiyojga ega bolalar uchun tegishli infratuzilma, moddiy resurslar va metodik ta'minot yaratishga qaratilgan.

Shu bilan birga, amaliyotda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

Sinf muhitining moslashmaganligi – umumta'lim maktablarida jismoniy muhit (panduslar, maxsus o'quv jihozlari va h.k.) aksariyat hollarda ta'limda alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar uchun moslashmagan.

Pedagoglarning inklyuziv ta'limga tayyorgarligi yetarli emas – o'qituvchilarning aksariyatida inklyuziv pedagogika bo'yicha maxsus bilim va ko'nikmalar mavjud emas.

Ijtimoiy stereotiplar – jamiyatda va hatto ta'lim tizimida ham nogironligi bor bolalarni «nogiron», «erisha olmaydigan», «chidamsiz», «mas'uliyat talab qiluvchi», «o'ziga e'tiborni haddan ziyod talab etuvchi» deb qabul qilish holatlari mavjud.

Ota-onalarning tayyorgarligi va xabardorligi yetishmaydi – ko‘pincha ota-onalarda inklyuziv ta’lim mohiyatiga nisbatan shubha va ishonchsizlik saqlanib qolmoqda.

Bunday muammolarni hal etishda nafaqat infratuzilmani yaxshilash, balki insonparvar pedagogik munosabat, empatik o‘qituvchi tayyorlash, jamoatchilik ongini o‘zgartirish va ta’limda alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarning shaxsiy rivojlanish salohiyatini to‘g‘ri baholay olish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayd etish muhimki, inklyuziv ta’limni joriy etishda **psixologik jihatlar**, ya’ni sinf muhitida ijtimoiy qabul, emotsional qo‘llab-quvvatlash va o‘qituvchi munosabatlari kabi omillar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Aynan shu nuqtai nazardan, ushbu mavzu nazariy va amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Chunki inklyuziv muhitda ta’limda alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarni samarali jalb etish psixologik yondashuvlarsiz muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

Kichik izlanishimizning maqsadi sifatida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni umumta’lim jarayoniga jalb etishda psixologik omillarni tahlil qilish, samarali intervensiya va yondashuvlarni aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni belgilab oldik.

Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgiladik:

1. Inklyuziv ta’limning mohiyati va falsafiy asoslarini qisqacha tavsiflash.
2. Ta’limda alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarni umumta’lim muhitiga jalb etishda uchraydigan asosiy psixologik to‘siqlarni aniqlash.
3. O‘qituvchi va sinf muhitida ijtimoiy qabulning bola rivojiga ta’sirini tahlil qilish.
4. «Group-inclusion» zamonaviy intervensiya usullarining samaradorligini ko‘rsatish.
5. O‘qituvchilar va ota-onalarning tayyorgarligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Usullar. Ushbu tadqiqotda nazariy-tahliliy va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi. Avvalo, inklyuziv ta’limga oid xalqaro va mahalliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar hamda pedagogik-psixologik adabiyotlar o‘rganildi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni umumta’lim jarayoniga jalb qilish tajribasiga ega davlatlarning (Finlyandiya, Sloveniya, Rumıniya, Polsha, Italiya va Ispaniya) amaliy yutuqlari tahlil qilindi.

Shu bilan birga, nazariy tahlil jarayonida quyidagi masalalarga e’tibor qaratildi:

Ta’limda alohida e’tiborga muhtoj bolalar uchun inklyuziv muhit yaratishdagi psixologik omillar;

O‘qituvchilar va sinfdoshlarning munosabati, ijtimoiy qabul va psixologik xavfsizlik;

«Group-inclusion» va shu kabi zamonaviy intervensiya modellarining o'rganilgan samaralari;

O'zbekiston ta'lim tizimidagi mavjud holat va rivojlanish tendensiyalari.

Ushbu usullar orqali mavzu bo'yicha muammolar, imkoniyatlar va yechim yo'llari tahlil qilindi.

Muhokama. Inklyuziv ta'lim – barcha bolalar, jumladan jismoniy, aqliy yoki hissiy cheklovlarga ega bo'lganlarni umumta'lim muassasalarida birgalikda o'qitishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Uning markazida inson huquqlari, ijtimoiy tenglik, bag'rikenglik va turfa xillikni qabul qilish kabi falsafiy qadriyatlar yotadi.

Falsafiy jihatdan, inklyuziv ta'lim gumanizm va aksiologiyaga asoslanadi. Insonparvarlik yondashuv insonni – uning ehtiyojlari va qobiliyatlarini – ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi. Aksiologik yondashuv esa ta'limda adolat, hurmat, bag'rikenglik kabi qadriyatlarni ilgari suradi.

Bu falsafiy asoslar ta'lim tizimiga quyidagicha ta'sir qiladi:

Barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratiladi;

Bolalar turli qobiliyatlar bilan qabul qilinadi;

Ta'limdan tashqari, ijtimoiy adaptatsiya ham ta'minlanadi.

O'rganishlarimiz asosida bolalarni umumta'lim muhitiga jalb etishdagi asosiy psixologik to'siqlarni belgilashimiz uchun asos bo'ldi. Inklyuziv ta'limni amalga oshirishda asosiy to'siqlardan biri – psixologik moslashuv muammosi hisoblanadi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bolalar o'zlarini sinf muhitida begona his qilishlari, qabul qilinmasliklari va emotsional qo'llab-quvvatlash yetishmasligidan aziyat chekishlari mumkin.

Asosiy psixologik to'siqlar quyidagilar:

Ijtimoiy stigma va stereotiplar: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni «farq qiluvchi» deb qabul qilish, ulardan ehtiyot qilish, past baho berish.

O'qituvchining munosabati: Odatda o'qituvchilar maxsus pedagogik tayyorgarlikka ega emasligi sababli, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam berishda ikkilanishadi yoki sust faollik namoyon etadilar.

Sinf muhitidagi chetlashish (izolyasiya): Sinfdoshlari tomonidan qabul qilinmaslik, muloqotda qatnashmaslik, munosabatdan chetlashtirilish.

O'z-o'ziga ishonchsizlik va qo'rquv: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning o'z qobiliyatiga ishonmasligi, o'zini «ortiqcha» his qilishi, natijada ta'lim jarayonidan chetda qolishi.

O'qituvchi va sinf muhitida ijtimoiy qabulning bola rivojiga ta'siri

Ijtimoiy qabul – alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumta'lim muhitidagi rivojlanishi va integratsiyasida hal qiluvchi omillardan biridir. Agar bola o'ziga nisbatan hurmat, tushunish va qabulni his qilsa, uning:

ta'limga qiziqishi oshadi,
o'z-o'ziga ishonchi mustahkamlanadi,
ijtimoiy qobiliyatlari shakllanadi,
ijobiy emotsional holati ta'minlanadi.

O'qituvchining g'amxo'rliqi, mehribonligi, insoniy munosabati va individual yondashuvi – ijtimoiy qabul muhitining asosiy ko'rsatkichidir. Sinfdoshlar tomonidan e'tirof va munosabat esa bolaning guruhdagi ijtimoiy maqomini belgilaydi. Aks holda, rad etilish, izolyasiya va kamsitish holatlari rivojlanishni cheklaydi.

Group-inclusion – alohida ehtiyojlarga ega bolalarni kichik ijtimoiy guruhlar orqali sinf muhitiga integratsiya qilish usulidir. Bu modelda bolalar:

Jamoaviy faoliyatlarda (o'yinlar, proektlar, ijodiy ishlar) qatnashadi;
Bir-birini tinglash, tushunish va qo'llab-quvvatlashga o'rganishadi;
Musobaqalashish o'rniga hamkorlik qilish muhitida rivojlanadilar.
Ushbu usul alohida e'tiborga muhtoj bolalar uchun quyidagi afzalliklarni beradi:
O'z-o'ziga ishonch va motivatsiyani oshiradi;
Sinf muhitida faol ishtirokni ta'minlaydi;
Ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi;
O'quvdagi muvaffaqiyatni rag'batlantiradi.

Bu intervensiya pedagog-psixologlar nazoratida amalga oshirilganda, ayniqsa samarali bo'ladi. O'qituvchi «yo'l boshchi», sinfdoshlar «qo'llovchi guruh» sifatida faol ishtirok etadi.

O'qituvchilar va ota-onalarning tayyorgarligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar

O'qituvchilar uchun:

Inklyuziv ta'lim bo'yicha maqsadli treninglar va seminarlar tashkil etish;
Metodik qo'llanma, keys-tajriba, video-ma'ruzalar orqali bilimlarni oshirish;
Ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarda ishtirok etish;

Psixologlar bilan hamkorlikda ishlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish.

Ota-onalar uchun:

Inklyuziv ta'lim mohiyatini tushuntiruvchi ma'rifiy uchrashuvlar, bukletlar va videoroliklar tarqatish;

Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish – maslahat kengashlari, umumiy faoliyatlarda ishtirok etish;

Ota-onalarga psixologik maslahat berish uchun maslahat markazlari tashkil etish;

Ota-onalar uchun «bir-birini qo'llab-quvvatlash guruhlari» (support groups) tuzish.

Xulosa

1. Inklyuziv ta'lim inson huquqlari va ijtimoiy tenglik tamoyillariga asoslangan holda barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan falsafiy va amaliy tizimdir.
2. Alohida ehtiyojlarga ega bolalarni umumta'lim jarayoniga samarali jalb qilishda psixologik omillar – ijtimoiy qabul, o'qituvchining munosabati va sinf muhitidagi emotsional qo'llab-quvvatlash – hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.
3. Zamonaviy intervensiya usullari, jumladan, «Group-inclusion» modeli, bolalarda ijtimoiy adaptatsiya, o'z-o'ziga ishonch va sinf muhitida faol ishtirokni ta'minlashga xizmat qiladi.
4. O'qituvchilarning inklyuziv ta'lim sohasidagi bilim va ko'nikmalari hozirgi kunda yetarli darajada emas, bu esa alohida ehtiyojlarga ega bolalarning ta'lim jarayonida to'liq ishtirok etishiga to'siq bo'lmoqda.
5. Inklyuziv muhitni yaratish nafaqat maktab ma'muriyati yoki o'qituvchi, balki butun jamoatchilikning faol ishtirokini talab etadi.

Tavsiyalar:

1. Inklyuziv ta'lim bo'yicha pedagoglar uchun ixtisoslashtirilgan qayta tayyorlash kurslari va amaliyotga yo'naltirilgan treninglar tashkil etish.
2. Umumta'lim muassasalarini alohida ehtiyojlarga ega bolalar uchun mos infratuzilma va ta'lim resurslari bilan jihozlash.
3. «Group-inclusion» va shu kabi samarali intervensiya modellarini amaliyotga joriy etish va lokal adaptatsiya qilish.
4. Ota-onalar va jamoatchilikka inklyuziv ta'limning mohiyatini tushuntirishga qaratilgan media va ma'rifiy dasturlarni tashkil etish.
5. Maktab psixologlari, defektologlar va logopedlarning roli va faoliyatini kuchaytirish orqali alohida ehtiyojlarga ega bolalarga individual yondoshuvni ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qoninu. 2020.
3. «Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni.
4. «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 13-oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori.
6. Broderick, A., Mehta-Parekh, H., Reid, D. (2005). Differentiating Instruction for Disabled Students in Inclusive Classrooms. Theory Into Practice, 44(3), 194-202.

7. Dewsbury, B., Brame, C. (2019). Inclusive Teaching. CBE Life Sciences Education.
8. Florian, L., Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. *British Educational Research Journal*. 28.
9. Mo'minova L.R., Nazarova, D. A. Inklyuziv va maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati. - Toshkent. «Lesson press» 2021.
10. Nazarova, D. A. Inklyuziv ta'lim asoslari. - Toshkent. «Lesson press» 2022.
11. Nazarova, D. A. (2020). «Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction Managers of Educational Institutions' to the Effective Organization of Inclusive Education.» *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(8), 7-12.